

9.-Mavzu: Paxtachilikni tashkil etish va optimal yuritish.

Reja:

- 1.Paxta yetishtirishning ijtimoiy - iqtisodiy axamiyati.
- 2.Chigit ekiladigan maydonlarni shudgorlash va o'g'itlash.
- 3.Chigit ekishni tashkil etish. Ekinlarni parvarish qilish. Ekinlarni sug'orishni tashkil etish. Paxta xosilini yig'ib-terib olish.

Tayanch iboralar: almashlab ekish, davlat buyutmasi, dehqonchilik tizimi, eksport, innovasiya, kontraktasiya, ko'p ukladli iqtisodiyot, milliy boylik, milliy daromad, texnologik karta,

Foydalangan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar

1. Samatov G.A., Yodgorov J.Yo., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Darslik. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». - Toshkent: ToshDAU taxririya-tashriyat nashriyot bo'limi, 2005. - 508 b.
2. Samatov G.A., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Ma'ruza matni. - Toshkent: ToshDAU taxririya-tashriyat nashriyot bo'limi, 2008. - 120 b.
3. Samatov G.A., Rustamova I.B., Gaybullayev O.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish fanidan amaliyot darslari uchun uslubiy ko'llanma. - Toshkent: ToshDAU taxririya-tashriyat nashriyot bo'limi, 2008. - 120 b.
4. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik. - Samarqand: Samarqand qishloq xo'jalik instituti, 2004y.
5. Xakimov.R., Yusupov.E.D. "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma. Toshkent- 2004 y.

Xorijiy adabiyotlar:

6. Agrarmanagement Jens Pape, Clemens Morath, Reiner doluschitz ISBN-10:3-8252-3587-4, EAN:978382523587
7. Barrick, R. K. Harmon, H. L. Animal Production and Management Ed: Gregg Division McGraw-Hill (1988-02-01) ISBN 10: 007003852X / ISBN 13: 9780070038523
8. Connor, D. J.; Loomis, R.S.; Cassman, K.G. 2011. Grop Ecology. Productiviti and Management in Agricultural Systems. University Press ISBN: 9780521744034.
9. Modernes Agrarmanagement: Betriebswirtschaftliche Analyse-und Planungsvefahren MuBhoff, Hirschauer (2013) 3. Auflage, Vahlen-Verlag, Munchen.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22 oktyabr 2012 yildagi «O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4478- sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 sentyabrda Namangan viloyatiga 29-30 sentyabr kunlari Farg'ona viloyatiga tashriflari chog'ida bergan topshiriqlari bo'yicha chora-tadbirlar.
3. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. - T.: «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi», 2004. - 346 bet.
4. Komiljonov B.I. Innovasiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2007.
5. Samatov G.A., Yodgorov J.Yo., Rustamova I.B. Qishloqda zamonaviy bozor infratuzilmasini kompleks rivojlantirish va servis xizmatini tashkil etishning asoslari (fermerlar tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha biznes maktablar tinglovchilari uchun qo'llanma).-T.:ToshDAU taxririya-tashriyat nashriyoti 2004y.
6. Umurzoqov U.P. va boshq. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-moliya", 2007. - 276 b.

7. Farmonov T.H. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. - T.: «Yangi asr avlodi», 2004. - 144 s.
8. Shakirov F.K., Korolev Yu.B., Pastuxov A.K. i dr. Organizatsiya sel'skoxozyaystvennogo proizvodstva i menedjment: uchebnik dlya vuzov. - M.: Kolos OOO, 2008. - 607 s.

9.1. Paxta yetishtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.

Bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida iqtisodiyotni samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri paxtachilik samaradorligini oshirish bo'lib, bunga ishlab chiqarilayotgan paxta tolasining tashqi hamda ichki bozorda raqobatbardoshligini oshirishdan iboratdir. Shu tufayli paxtani qayta ishlashning asosiy mahsuloti tola sifatini oshirish omillarini har tomonlama tahlil qilish va ularni ishga solish yullarini izlab topish muhim ahamiyat kasb etadi.

Butun dunyoda ishlab chiqariladigan to'qimachilik sanoati tolasining 51,3 foizi paxta tolasidir. Qolgan qismi jun, zig'ir tolasi, ipak, kimyoviy tola va boshqalarga to'g'ri keladi. Paxta texnika ekinlari ichida eng ko'p foyda beradigan universal ekindir. Ko'pchilik ekinlardan olingan mahsulot kishilarning turli xil iste'mollarini qondirgani holda paxtadan hozirgi vaqtda 200 xildan ortiq sanoat mahsuloti olinadi.

100 kilogramm paxtadan 34-35 kilogramm paxta tolasi, 55-57 kilogramm chigit, 5-8 kilogramm paxta chiqiti olinadi. 1 kilogramm paxta tolasidan 5 metr mato, yoki 10-12 metr chit, yoki 20 metr batis, yoki 140 g'altak ip tayyorlanadi. Paxta tolasi texnik maqsadlarda ham ishlatiladi. 100 kilogramm chigitdan 19 kilogramm yog', 47-49 kilogramm kunjara ishlab chiqariladi. Chigitning sheluxasi chorva moli uchun ozuqa va texnika maqsadlari uchun xomashyo sifatida ishlatiladi. Paxtaning xalq xo'jaligida qimmatli tomoni yana shundaki, undan asalari yaxshi oziqlanadi. Bir gektar yerdagi g'o'za o'simligidan asalari 300 kilogrammgacha asal to'playdi.

Hozirgi kunda paxtachilik tarmog'ini zamonaviylashtirish zarur. Bu ulkan sarmoya qo'yilmalarini talab etadi. Paxta hosildorligini oshirish, uni yetishtirish darajasini saqlab qolish va respublikaning xalqaro paxta bozoridagi yetakchi o'rnini mustahkamlash uchun zamin yaratadi.

Paxtachilik tarmog'i Respublika uchun strategik hisoblanib, u yetarli darajada rivojlantirilsa, mamlakat iqtisodiyoti uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi. Biroq buning uchun avvalambor, yirik sarmoyalar va bevosita xorijiy investisiyalarni jalb qilish zarur.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirish esa bunday moliyaviy qo'yilmalar uchun zamin yaratadi. Qishloq xo'jaligi va xususan, paxtachilikdagi birinchi investisiya loyihasi Jahon bankining paxta loyihasi hisoblanadi. Ushbu loyiha Respublika iqtisodiyoti uchun o'ta muhimdir.

Loyihaning maqsadi paxta va donga davlat tomonidan buyurtma berishdan asta-sekin voz kechish, eksport imkoniyatlarini oshirish va xorijiy investorlarni jalb qilish uchun qulay muhit yaratish, paxta tolasining mavjud bozor narxlarini jahon narxlariga moslashtirish, ekin urug'larini

tayyorlash bazasini yaratish, o'simliklarni sug'orish va himoyalash sohasida atrof muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan yangi texnologiyalarni rivojlantirish va joriy qilishni nazarda tutadigan qishloq xo'jaligi sektorida islohotlarni amalga oshirishdan iborat.

Paxta tolasining texnologik sifat ko'rsatkichlari asosan g'o'za seleksiyasi va urug'chiligiga, ilmiy asoslangan parvarishlash texnologiyasi agrotadbirlariga, paxta terish mexanizmlari va texnologiyasiga, paxta tozalash sanoatida paxtani qabul qilish, saqlash va unga dastlabki ishlov berish shart-sharoitlariga o'ta bog'liqdir.

Paxtachilikning asosiy vazifasi bu paxta tolasini lozim bo'lgan hajmda va to'qimachilik sanoati uchun zarur bo'lgan tip va sanoat navlari bo'yicha yetishtirishdir. Hozirgi paytda paxtani qayta ishlash sanoati oldida jahon bozoriga chiqish bilan bog'liq ulkan istiqbollar ochilmoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng paxta tolasini sotish va tasarruf etish tartibi tubdan o'zgaradi.

Birinchiidan, mustaqil ravishda jahon bozoriga chiqish amalga oshirilmoqda.

Ikkinchidan, jahon amaliyotida qabul qilingan tasarruf etish xususiyatlarini hisobga olgan holda sotiladigan tolaning sifat ko'rsatkichlarini baholashga yangicha yondoshila boshlandi.

Paxta tolasi hozirgi kunda valyuta tushumining jiddiy manbalaridan biridir. Shuni hisobga olib, o'zbek paxtasi raqobatbardoshligini oshirish va jahon bozorida munosib mavqega ega bo'lishini ta'minlash uchun ma'lum ishlar amalga oshirilmoqda.

Paxta hosilining umumiy hajmini kamaytirmagan holda hosildorlikni oshirish hisobiga chigit ekiladigan maydonlarni imkon qadar kamaytirib borib, sug'oriladigan yerlarni boshqoli don, meva- sabzavot, chorva ozuqasi uchun bo'shatib berish jarayoni davom etayapti. Paxtachilik rivojini ko'zlangan yuqori darajaga yetkazish uchun zamonaviy texnologiyalar, shu jumladan, chigitni plynka ostiga ekish usuli qo'llanilmoqda, serhosil va ertapishar paxta navlarini yaratish, xorijiy davlatlarda ekilayotgan navlarni respublikamiz sharoitida sinab ko'rish yuzasidan keng ko'lamdagi ishlar shular jumlasidandir.

Mehnat unumdorligi o'sishining obyektiv imkoniyatlarini amalga oshirishda xo'jalik hisobi mexanizmi asosiy rolni bajaradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari alohida ahamiyatga egadir.

Birinchiidan, odamlar hayotining moddiy va ma'naviy darajasini oshirish uchun iqtisodiyotda tub o'zgarishlar yuz beradi. Bunday maqsadga erishish uchun, avvalambor, mehnat unumdorligining yuqori darajada bo'lishini ta'minlash zarur.

Ikkinchiidan, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishda juda ko'p moddiy-texnik muammolarni hal etish zarur. Bu muammolarning yechimida ijtimoiy mehnat unumdorligini o'sishi asosiy o'rinni egallaydi.

Uchinchiidan, mehnat unumdorligining yuqori darajada o'sishi odamlar uchun zarur bo'lgan bo'sh vaqtni ko'payishiga, qo'shimcha ish joyini tashkil etishga imkoniyat yaratib, ma'naviy rivojlanish va yashash darajasini o'sishiga olib keladi.

Respublikamizda, ertapishar navlar ekiladigan maydonlar o'tgan yillardagiga nisbatan ikki barobar kengaytirildi. Buning afzaliklari shundaki, birinchiidan, hosil barvaqt yetiladi, ikkinchiidan, paxtadan bo'shagan yerga qulay muddatda g'alla ekish mumkin.

Yuqori sifatli tola beradigan, tezpishar navlarni joriy etish va ularni oqilona joylashtirish yo'lida izlanishlar olib borib "Omad", "Armug'on", "Oqdaryo-6", "Oqqo'rg'on-2", "Meh", "Xazina", "Gulsara" singari yangi navlar sinab ko'rilmogda.

Iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatmogdaki, mehnatni tashkil etish va unga haq to'lash usullarini takomillashtirish, ularni samaradorligini oshirish, oilaviy, individual va ijara pudratlarini keng joriy etish uchun eng avvalo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini sifat jihatdan yangi asosga ko'chirish lozim.

Hozirgi vaqtda respublikadagi yigiruv va to'quv sanoatida foydalaniladigan xomashyoning 60%dan ortig'i paxta tolasidir. Paxta momig'idan ham yengil sanoatda xomashyo sifatida foydalaniladi, Paxta chigitidan yog', margarin tayyorlash uchun gliserin, yog' kislotasi va boshqa ko'plab mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bu mahsulotlardan aholi uchun oziq-ovqat, sanoat uchun xomashyo sifatida foydalaniladi. Kunjaradan chorva mollari uchun oziq sifatida foydalanib, uning tarkibidagi gossipoldan esa medisina foydalaniladi.

Paxta chigitidan sheluxa ham olinadi. G'o'za bargidan limon va olma kislotasi olinadi. Bu kislotalardan oziq-ovqat va to'qimachilik sanoatida, medisina va fototexnika sohalarida foydalaniladi. G'o'zapoyadan spirt, qurilish materiallari va chorva mollari uchun ozuqa olish mumkin.

9.2.Chigit ekiladigan maydonlarni shudgorlash va o'g'itlash.

Yer to'g'ri ishlansa, chigit barvaqt unib chiqadi, o'simlik juda yaxshi o'sadi va rivojlanadi.

Ekishgacha bo'lgan davrda (kuzgi shudgorlash va ekish oldidan ishlash davri) yerni ishlashga qo'yiladigan asosiy talablar tuproqni yumshatish, yaxshilab donador qilish, ekinning o'suv davrida zichlashib qolgan haydalma qatlamning bor bo'yicha mayda tuproq agregatlariga bo'lib yuborish, begona o't urug'i va qoldiqlarini, zararkunanda hamda kasallik qo'zg'atuvchilarni yo'qotish, yog'in-sochin suvini to'plash va saqlash, foydali mikroorganizmlar

faoliyatini kuchaytirishdan iboratdir.

Yerni ishlash xo'jalikning, hatto, ayrim dalaning tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olib qat'iy tabaqalashtirilgan holda amalga oshirilishi lozim. Shu bilan birga barcha texnologik jarayolarini sifatli tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z vaqtida sifatli qilingan kuzgi shudgor g'o'za hosildorligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Kuzda shudgor qilingan dalalarda yirik-yirik kesak va palaxsalar qishda vaqti-vaqti bilan goh muzlab, goh erib turishi natijasida erta ko'klamga borib mayda donador holga keladi. Qishda yer muzlaganda u zich mayda kesaklarni siqib, ular orasidagi bo' shliqni kengaytiradi, natijada tuproq shunday mayin tuzilish kasb etadiki, bunga hyech qanday sun'iy vositalar yordamida erishib bo'lmaydi.

Ko'p hollarda sug'oriladigan yerlar chimqirqarli yoki oldingi (chimqirqar) va ketingi (asosiy) korpuslarining kattaligi bir xilda bo'lgan qo'shyarusli pluglarda qilingan kuzgi shudgor eng yaxshi samara beradi. Buning boisi nimada?

Bu savolga javob berish uchun tuproq haydalma qatlamining texnologik xossalariga to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi.

Haydalma qatlam xossalari bir-biriga o'xshamagan ikki ustki va ostki qavatdan iboratdir.

10-15 sm.li ustki qatlam (bedapoya bundan istisno) mustahkam emas, kukunlangan (to'zg'uvchan), zich bo'lib haydalganda ostki qatlamga qarama-qarshi o'laroq, uvalanmay, yirik-yirik kesak va palaxsalar ko'chadi. Bunga sabab tuproqning qatlamiga mexanik, kimyoviy va biologik omillar hamisha ta'sir etib turishidir.

Sug'organda va yog'ingarchilik bo'lganda tuproqning ustki qismini suv yuvadi. Daladan ko'pincha mollar yuradi, traktor, mashinalar o'tadi.

Bir yillik chopiq qilinadigan ekinlar o'stirilganda bu yerda organik moddalar chirishining kuchli aerob jarayoni ro'y beradi; tuproq chirindisi ham parchalanadi; tarkibida chirindi bo'lmagan joyda kesaklar bo'linib ketadi

Haydalma qatlamning ostki qavatiga yuqorida qayd etilgan omillar salbiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Bu qatlamda hyech narsa yo'qolmaydi, balki tuproq tuzilmasining mustahkamligi tiklanadi.

Demak, haydalma qatlamning ustki qavatini ostki qavatiga almashtirib turish kerak. Ustki qatlamga ishlanganda uvalanib ketish xossasiga ega bo'ladigan sharoit yaratib berish lozim. Buning uchun tuproqning ustki qatlamini har yili bir marta ostiga, ya'ni egat tubiga tushirish, uvalanish xossasiga ega bo'lgan mustahkam ostki qatlamni esa ustga chiqarish zarur.

Bedapoyaning ustki qatlamida ildiz qoldiqlari ko'p bo'lganligidan u haydalganda uvalanmay, palaxsa yoki bo'lak -bo'lak chim hosil bo'ladi. Vazifa bedapoyaning 10-15 sm.lik ustki qatlamini ag'darib haydab, ostga, egat tubiga tushirishdan iboratdir. Shunday qilinganda ustki qatlam bilan egat tubiga tushgan ildiz qoldiqlari chirib, tuproq tuzilmasini mustahkamlaydigan ko'p miqdorda faol chirindi hosil etadi. Tuproq haydalma qatlamining ildiz qoldiqlari kam bo'lgan va uvalanadigan ostki qavatini esa ustga chiqarish darkor.

Bundan tashqari, tuproqning ustki qatlamida begona o't urug'lari, ildizlari, ildizpoyalari va kurtaklari deyarli hamma vaqt juda serob bo'ladi. Ekinlarga zarar yetkazadigan hasharotlar va zamburug' hamda bakterial kasalliklarini qo'zg'atuvchilar ham mana shu ustki qatlamda yashaydi va ko'payadi. Ma'lumki, begona o't, qishloq xo'jalik zararkunanda va kasalliklari hosil ofatidir. Dalalarni begona o't bosishi va zararlanishiga qarshi jiddiy qurashmoq kerak, yerni kuzda haydash va tuproqni ekish oldidan ishlashning to'g'ri sxemasini qo'llamasdan turib, yuqori samaradorlikka erishib bo'lmaydi. Tuproqning ustki qatlamini begona o'tlarning ungan va unmagan urug'lari, kurtaklari, ildizlari, shuningdek, o'simlik qoldiqlariga kirib olib qishlayotgan zararkunanda hamda kasallik qo'zg'atuvchilar bilan birga egat tubiga tushirib (ko'mib tashlab), ularni havo yorug'lik va issiqlikdan mahrum etish kerak, ana shunda ular batamom yoki ko'plab nobud bo'ladi. Ag'darib

haydalganda tuproqning ostki qatlami yuzaga chiqib undagi zararkunanda lichinkalari muzlab qolishi natijasida qirilib ketadi.

Kuzda yerni chimqirqarli plugda yoki ko'p yarusli plugda haydash kerak; bunday haydashni madaniy haydash deyiladi.

Madaniy haydashning mohiyati shundaki, haydalma qat-lamni ag'darib haydashda bir yo'la ikki ish bajariladi: plugning oldingi korpusi tuproqning yirik-yirik kesak, palaxsa, chim bo'laklaridan iborat ustki qatlamini ag'darib, egat tubiga tashlaydi, keyingi korpusi esa haydalma qatlamining mayda uvoqlanadigan ostki qavatini yer betiga chiqarib ketadi.

Yer chimqirqarsiz plugda haydalganda haydalma qatlamining hammasi bir yo'la ag'dariladi, natijada yirik-yirik palaxsalar hosil bo'ladi, eng muhimi begona o't urug'lari va ildiz qoldiqlari ustki qatlamda qolib, ko'klamda zo'r berib ko'kara boshlaydi va yana ko'payib ketadi. Bu hol ularni yo'qotish uchun ko'plab mehnat va mablag' sarflanishiga sabab bo'ladi.

Biroq muayyan sharoitda, chunonchi, ayrim sho'rangan, ma'lum darajada g'ovak (yumshoq-havol) va begona o'tdan toza yerlarda tuproqni kuzda ag'darmasdan (otvalsiz plugda) haydash ham mumkin. Yer bunday usulda haydalganda o'simlik jadal rivojlanishi bilan birga har yili ag'darib haydalgandan keyin bajariladigan tekislash ishlariga ketadigan mehnat hamda mablag' ancha- muncha tejab ham qolinadi.

Kuzgi shudgordan so'ng tuproqning suv va havo o'tkazuvchanligi xiyla yaxshilanadi. Paxtakor hududlarda joylashgan yerdagi ko'pchilik tuproq betida mayda uvoq va mikroelementlardan iborat nisbatan g'ovak qatlam hosil bo'lib, tuproqdan namning bug'lanishini keskin kamaytiradi. Akademik M.Muhammadjonov ma'lumotlariga qaraganda kuzda shudgor qilingan uchastkada tuproq haydalma qatlamidagi suv zaxirasi ekish paytida gektariga 1250 m³ bo'lgani holda, kuzda shudgorlanmagan uchastkada esa atigi 820 m³ ni tashkil etgan.

Kuzda shudgor qilingandan keyin ko'klamda ekish oldidan yuza yumshatilgan yerlarda qatqaloq tuproq betini yupqaroq, ko'klamda haydab ekish oldidan bir necha bor ishlangan yerlarda esa xiyla qalinroq bosadi. Kuzda shudgor qilinib, ekish oldidan yer yuzaroq yumshatilgandan so'ng kukunlashgan zarrachalar 53% ni tashkil etadi va urug' ekilgandan so'ng hosil bo'lgan qatqaloq qalinligi atigi 0,5-1,0 sm. bo'ladi, ko'klamda haydalgan uchastkalarda esa kukunlagan zarrachalar 64,4%, qatqaloq qalinligi 23 sm. ni tashkil etgan.

Kuzgi shudgorning mana shu va boshqa afzalliklari chigitning barvaqt, to'liq, qiyg'os unib chiqishi, g'o'zaning yaxshi rivojlanishi va hosilning erta yetilishini ta'minlaydi. Ilmiy muassasalarning tajribalari va ko'pgina fermer xo'jaliklarning amaliy ishlari kuzda shudgor qilingan yerlardan ko'klamda haydalgan yerlarga qaraganda 15-20% va bundan ham ziyodroq paxta hosili olish; yalpi hosilnig 85-90% ini birinchi navga topshirish; paxta tannarxini arzonlashtirish mumkinligini ko'rsatdi.

Sug'oriladigan tumanlarning ko'pchilik yerlari, ayniqsa, sho'rланmagan og'ir, soz, soz va qumoq, shuningdek, chuchuk sizot suvlari yuza joylashgan o'tloq hamda o'tloq-to'qay tuproqlarda yer haydashni kuzdan ko'klamga qoldirish yaramaydi, chunki bu xo'jaliklarga katta putur yetkazadi. Yuqorida sanab o'tilgan tuproq sharoitida ko'klamda yerni yaxshi yetiltirib haydash amalda mumkin emas, chunki haydalma qatlamning turli qavatida nam turlicha bo'ladi; ko'pincha yer tuproqda nam ortiqcha yoki kam bo'lgan paytda haydaladi, bu tuproqning yopishqoqligini oshiradi.

Ko'klamda yer, hatto, chimqirqarli plugda haydalganda ham ko'p hollarda palaxsa ko'chadi va u tez qurib, juda qotib ketadi. Kesaklarni maydalash juda og'ir. Yerni ko'klamda haydash kuz-qish va erta ko'klamda to'plangan tabiiy namning yo'qolishiga so'zsiz sabab bo'ladi. Bunda chigitni, ko'pincha, yaxshi uvalanmagan, unib chiqishi uchun yetarli nami bo'lmagan palaxsali yerlarga ekishga majbur bo'linadi yoki ko'klamda palaxsa-kesaklarni maydalash uchun ko'p mehnat sarflashga, chigit suvi berishga to'g'ri keladi. Vaholonki, bularning hammasi chigitning unib chiqishini kechiktiradi va ko'pincha xato chiqishiga sabab bo'ladi. Ko'klamda yer haydashning yana bir yomon tomoni shundaki, u chigit ekishni kechiktiradi va qo'shimcha ishlarni bajarishni taqozo qiladi. Natijada g'o'za o'sish va rivojlanishdan orqada qoladi, hosil kamayadi, paxtaning tannarxi esa oshadi.

Shunday qilib, yer ko'klamda haydalganda katta xarajatlar moddiy va mehnat sarfi evazigagina durustroq hosil olish mumkin bo'ladi.

Shuning uchun ham kuzgi shudgor sug'oriladigan yerlarning ko'p qismida, ayniqsa, ko'klamgi haydashda palaxsa ko'chadigan yerlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan majburiy agrotexnik tadbir hisoblanadi.

Haydash chuqurligi-bu kuzgi shudgorning sifatini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Yuqorida qayd etilganlarning hammasini shudgorning betida g'ovak, mayda uvoqli qatlam hosil qilish, nam to'plash, daladagi begona o'tlar, zararkunanda va kasalliklarni yo'qotishni kuzda chuqur shudgor qilingan taqdirdagina muvaffaqiyat bilan amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Chuqur haydash g'o'za uchun ham zarur. G'o'za qiyg'os gullagan davrda sizot suvlari chuqur joylashgan bo'z tuproq tipidagi yerlarda uning ildizi 150-200. sm. va undan ham chuqurroqqa, 60 sm. va undan ziyodroq tevarak-atrofga taraladi. Bunda g'o'zaning son-sanoqsiz ildizchalari butun haydalma qatlam bo'ylab taraladi va ularning ko'proq qismi esa hatto haydalma qatlam tubigacha kirib boradi. Haydalma qatlam qancha qalin va oziq elementlariga boy bo'lsa, g'o'zaning ildiz tizimi hamda yer usti qismi shuncha yaxshi rivojlanadi, mo'l paxta hosili olish uchun shuncha yaxshi sharoit yaratiladi.

Kuzgi shudgorlash muddati ham juda muhimdir. Bahorgi ekinlar ekiladigan maydonning hammasi qora sovuq tushguncha va seryog'in kunlar boshlangunga qadar shudgor qilib qo'yilishi lozim. O'z vaqtida kuzda shudgorlab qo'yilgan dalalarga sovuq uzoq vaqt ta'sir etadi. Buning natijasida shudgor goh muzlab, goh erib yer betida g'ovak mayda uvoqli qatlam vujudga keladi; tuproq yog'in-sochin namini yaxshi singdirib, zarur nam zaxirasini to'playdi va uni o'zida tutib qoladi.

Qadimdan sug'orilib kelinayotgan tuproqlar ko'p asrlar davomida ishlanib kelmoqda. Ko'pchilik tuproqlarning agroiirrigasiyaviy qatlami oziq moddalarga boy bo'lib, qalinligi 1,5-2,0 m. va bundan ham ziyodroqdir. Ammo mana shu qatlamdagi oziq moddalardan o'simlik yetarli darajada foydalana olmaydi, chunki har yili bir xil chuqurlikda (25-30 sm) haydalganligi, sug'orilganligi va boshqa sabablarga ko'ra haydalma ostidagi qavvat 40-60 sm. va bundan ham chuqurroqqacha juda zichlashib qolgan. Mana shu narsa o'simlik ildiz tizimining zo'r berib o'sib, chuqurroq taralishi, suv zaxirasining ko'payishiga monelik ko'rsatadi, bu hol mo'l va arzon paxta hosili olish imkoniyatini birmuncha cheklab qo'yadi. Haydalma qatlamni chuqurlashtirish hosil-dorlikni oshirish va unga ketadigan moddiy-pul mablag'lari sarfini kamaytirish hisobiga juda katta iqtisodiy foyda keltiradi.

Yerni ekish oldidan ishlash har yilgi ob-havo sharoiti, kuzgi shudgorning bahordagi holati, yerning ko'klamda haydalishi, tuproqning mexanik tarkibi, zichlanganligi va har bir uchastkaning qay darajada o't bosganligiga qarab qat'iy tabaqalashtirilgan holda o'tkazilishi lozim. Yerni ekish oldidan ishlash faqat boronalash, yoppasiga kultivasiya qilish, chizellash, diskalash (shudgorning holatiga qarab 1,2,3 karra) bilan birga boronalash, molalash va hokazolardan iborat bo'lishi mumkin.

Yerni kerakli chuqurlikda puxta, zarur bo'lgan hollarda bir necha bor ishlashdan maqsad chigit juda havol (g'ovak) tuproqda emas, balki sal zichlashgan yerda yotishi kerak, shunda chigit pastdan uzluksiz nam olib turadi. Bunga erishish uchun yerga yaxshilab mola bostirish zarur.

Yer chuqur haydalgandan keyin ular muayyan tuproq sharoitiga qarab dalani uzunasiga va ko'ndalaniga bir, ikki, ba'zan uch marta chizel bosib borona va mola tirkalgan agregatda diskalaydilar so'ng og'ir mola bosadilar.

9.3. Chigit ekishni tashkil etish. Ekinlarni parvarish qilish. Ekinlarni sug'orishni tashkil etish. Paxta xosilini yig'ib-terib olish.

Chigit ekish paxtachilikda eng mas'uliyatli ishlardan hisoblanadi. Chigit agrotexnik muddatlarda jadal sur'atlar bilan ekilsa mo'l hosil uchun zamin yaratiladi. Ilg'or xo'jaliklar va ilmiy tadqiqot institutlarining ko'p yillik ish tajribalari chigit quyidagi muddatlarda ekilsa, mo'ljallangan hosilni olish mumkinligini ko'rsatadi. Surxondaryo viloyatining janubiy tumanlarida 10 aprelgacha, Surxondaryo viloyatining shimoliy, Qashqadaryo viloyatining Qarshi

tumanlari, Buxoro,

Namangan viloyatlari va Farg'ona viloyatining Qo'qon tumanlarida 15-aprelgacha va boshqa viloyatlarda 25-aprelgacha ekib tugatilishi kerak.

Tukli chigitlar oddiy qatorlab, ikki qator lenta usulida, keng qatorlab ekiladi. Tuksizlantirilgan chigitlar keng qatorlab - uyalab ekiladi.

Ilg'or paxtakorlar tajribasi chigitni ikki qatorlab ekish hosildorlikni oshirishda yaxshi natijalar berayotganligini ham ko'rsatmoqda.

Chigitni isrof qilmaslik uchun ekish sxemalariga qarab, har gektar yerga ekiladigan chigit urug'i me'yorini belgilash kerak. Olimlarning o'tkazgan tajribalari shuni ko'rsatadiki chigit uyalab ekilsa, uning tekis unib chiqishi uchun tukli chigitdan har bir uyaga 8-10 tagacha, oddiy qatorlab ekilganda qatorning bir metriga 50-60 tagacha chigit ekilishi kerak. Shunga asoslanib, 1 gektarga sarflanadigan chigitning me'yorini quyidagicha belgilash mumkin:

-uyalab ekilganda 40-60 kg;

-tuksizlantirilgan chigitni belgilangan miqdorda uyalab ekkanda 22-25 kg;

-tuksizlantirilgan chigitni keng qatorlab ekkanda 25 kg;

-qator oralig'i kengligini 60-90 sm qilib qatorlab ekkanda tukli chigit 70-80 kg.

Ob-havoni noqulay kelishini hisobga olib, tayyorlanadigan urug'lik chigitlarning miqdori umumiy talabga nisbatan 5-10 % ga oshirilishi mumkin. Ekilgan chigitlarni yerdan kam-ko'stsiz unib chiqishini vs unib chiqqandan so'ng har xil qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalariga chidamli bo'lishi uchun urug'lik chigitlar paxta tozalsh zavodlarida va xo'jaliklarning o'zida ekish oldidan har xil kimyoviy moddalar bilan dorilanishi kerak. Chigitlar bir xil unib chiqsa, tez avj olib ketadi va hoisldirlik oshadi. Bunga erishish uchun bir me'yorda, chuqurlikda ekilishi lozim. U yerning sifatiga, mexanizatorlarning ustaligiga, ob-havo sharoiti kabilarga bog'liq. Agronomlarning maslahatiga ko'ra, tuproqning namligi va harorat yetarli bo'lganda 4-5 sm, kechroq muddatlarda tuproqning nami kamayibroq qolsa hamda harorat yuqori bo'lsa 5-6 sm. Chuqurlikda ekilishi lozim.

Chigitni ekishda ekish sxemalariga qarab seyalkalar jamlanadi, hozirgi vaqtda, asosan, osma seyalkalardan foydalaniladi. Agar tuksizlantirilib saralangan chigitlar ekilsa, CTX-4 seyalkalarning "A" varianti, tukli chigitlar ekilsa CTX-4 seyalkasining "B" variantidan foydalaniladi. Bu seyalkalar, asosan T-28X-3(4) traktorlariga o'rnatiladi.

Agar ekish bilan birga mineral o'g'itlarni sochish ham mo'ljallansa, ko'tarish mexanizmlaridan foydalangan holda KPX-4 kultivatorlari apparatlari o'rnatiladi.

Keng qatorlab ekishda bir yo'la o'g'it va begona o'tlarga qarshi gerbisid ham purkaladi. Bu operatsiyalarni bajarish uchun traktorga seyalka bilan birga o'g'itlagich o'rnatiladi, chigit ekish bilan bir yo'la har gektariga 10-15 kg azot va 15-20 kg fosfor sepiladi. Ekish agregatining ish unumini oshirish uchun seyalkaga vaqtincha chigit solib turish, traktorni yonilg'I va suv bilan uzluksiz ta'minlab bekor turib qolishiga yo'l qo'ymay, ish kunidan to'la foydalanish uchun ishni soatlik grafik asosida uyushtirish lozim.

Ekinlarni parvarish qilish.

G'oz va g'o'za singari qator oralari ishlanadigan ekinlar qatqaloqni o'z vaqtida yumshatish, qator oralarini kultivasiya qilish va begona o'tlarni yo'qotish, yagonalash, egatlar olish, su'g'orish, oziqlantirish, ekin kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurashish yo'llari bilan parvarish qilinadi. Ekin qator oralarini ishlashda chopiq traktorlaridan: T-28X3, Tx4 hamda g'ildirakli o'qlari ancha baland bo'lgan o'zi yurar shassilardan foydalaniladi.

Hozir xo'jaliklarda yuqoridagi traktorlar bilan agregatlanadigan KPX-4, KPX-3,6 markali kultivatorlar o'g'itlagichlar hamda g'o'za zararkunandalariga qarshi kurashda islatiladigan OBX-14, OTH-8-16 markali ximikat purkagich changlatgichlar ishlatiladi. Shuningdek, beda zararkunandalariga qarshi kurashishda T-28X3(4) traktorlariga tirkaladigan OHK-B purkagich-changlatgich agregatlaridan ham foydalaniladi. Qator oralarini ishlashda amaldagi agrotexnika qoidalariga muvofiq kultivatorga:

a) O'toq qiluvchi panjalar, tuproqni yassi kesadigan bir tomonlama panjalar, yassi kesadigan g'oz panjalar va universal g'oz panjalar;

b) Yumshatuvchi panjalar o'rnatiladi.

Qator oralarini ishlash vaqtida kultivatorning tortishga qarshiligi, turi va holatiga, o'rnatilgan ish organlarining soni va xillariga, qator oralarini yumshatish chuqurligiga hamda tuproqning holatiga va panjalarning o'tkir -o'tkirmasligiga, dalaning o't bosganlik darajasiga bog'liq. O'tmas pichoq panjalar kultivatorning qarshilik ko'rsatishini oshiribgina qolmay, balki pichoq panjalar orasida o't tiqilib qolishi natijasida agregatning tez -tez to'xtab qolishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun pichoq panjalarni muntazam ravishda charxlab turish lozim.

Qator oralari belgilangan muddat va usulda agrotexnika qoidalariga asosan, bir tekis chuqurlikda ishlanishi lozim. Yumshatish chuqurligining belgilangandan bir santimetr gacha farq qilishiga yo'l qo'yiladi. Kultivatsiyalashda tuproqning istalgan nam qavati yuzaga chiqib qolmasligi, qator oralardagi begona o'tlar tamoman yo'qotilishi, ayni vaqtda ekin maysalari shikastlanmasligi lozim, buning uchun qator oralarini birinchi ishlashda qatorning ikki tomonidan uning markazidan hisoblaganda 70-80 sm kenglikda, keyingi ishlarida esa o'simliklarning rivojlanish darajasiga qarab, birinchidagidan kengroq himoya zonasi qoldiriladi.

Qator oralarini ishlashda traktor g'ildiragining enini e'tiborga olish va himoya zonasida belgilash zarur. Traktorlar g'ildiragi qator oralarining o'rtasidan o'tishi yaxshi natija beradi, chunki g'ildiraklarning har ikkala tomonidagi himoya zonalari bir xil bo'ladi.

G'o'zani oziqlantirishda iskanasimon yoki bir tomonlama panjaralar o'rniga okuchnik, yoxud soshniklar qo'yiladi. G'o'za qatorlarining har metrda o'rta hisobda 30tadan maysa paydo bo'lganda mashinada yagalanadi. Bunda uyalar o'rtasini qancha qoldirish qabul qilingan sxemaga asosan hal qilinadi. Yaganalashdan keyin uyalardagi maysalar qo'lda rostanadi; har uyada 2-3 tup o'simlik o'stiriladi.

G'o'za T-28X3 va T-28X4 markali traktorlarga o'rnatilgan KPX-4 markali kultivator bilan yagonalanadi. Kultivatorning pichoq panjalari yerni ko'pi bilan 10-12 sm chuqurlikda yumshatadigan qilib o'rnatiladi.

G'o'za va boshqa ekinlarni o'sish davrida o'g'itlash o'simliklarning oziqlanishi va rivojlanishini tartibga solib turishga imkon beradigan eng muhim agrotexnika tadbirlaridan biridir. To keyingi yillargacha ko'pchilik xo'jaliklarda g'o'za o'sish davrida 3-4 marta oziqlantirilib, o'g'itlar qator oralarining o'rtasiga solinar, sug'orish egatlari tubiga 3-4 sm chuqurga ko'milar edi. Lekin ilmiy muassasalar va ilg'or xo'jaliklarning tajribasi o'g'itlarni g'o'zaga yaqinroq qilib, ya'ni qatorlarning yoniga solish yaxshiroq natija berganligini ko'rsatadi. O'g'itlar g'o'za tupiga yaqin solinganda har gektaridan qo'shimcha 2-4 s va undan ko'proq hosil oshishi isbotlandi.

O'g'itlagichli kultivatorni dalaning bo'yiga qarab birinchi marta yurgizishda uning ishlash kengligi seyalkaning ekish kengligiga teng bo'lishi zarur. Agregat moki harakati shaklida yirgiziladi. Agregat berinchi marta yurgizilganda, keyinchalik esa har smenada o'g'itning qanday ko'milayotganligi 3-4 marta tekshiriladi.

O'g'itlar oldindan belgilab qo'yilgan joyga o'z vaqtida keltirib qo'yilsa, agregat beto'xtov ishlaydi. O'g'itlagichga o'g'it solish uchun atigi 1-1,5 minut vaqt ketadi. Ammo o'g'itlar agregat turgan joydan, 40-30 sm narida bo'lsa, o'g'itlagichlarga o'g'it solish uchun 10 minut va undan ko'proq vaqt sarflanadi. Shu sababli, o'g'itlagichga o'g'it solinadigan joylarni oldindan belgilab qo'yish zarur. Bu joy ham ekish agregati joyini aniqlashdagi formula bilan belgilanadi.

Xo'jalikda ekinni suyuq o'g'it bilan oziqlantirilganda bir necha agregat ishlatilganda agregatlarga o'g'it solish kunlik grafigi tuziladi. Bu grafikda har bir avtosisternaning o'ziga biriktirilgan agregatlarga qay vaqtlarda o'g'it solib turishi ko'rsatiladi.

Ekinlarni parvarish qilishda o'simlik zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash olib borish ham eng muhim tadbirlardan hisoblanadi. Bu tadbirlar zararkunanda va kasalliklarning paydo bo'lishiga yo'qoymaslik va paydo bo'lganlarini darhol yo'qotish maqsadida ekinlarga zaharli dorilar purkash yoki changlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Ekinlar OBX-14 markali purkagich-changlagichlar bilan dorilanadi. Dorilanayotgan ekin qanday sxemada ekilgan bo'lsa, dorilash agregati ham o'sha sxemada yurgiziladi.

Ekinlarni sug'orishni tashkil etish.

Ekinlarni belgilangan agrotexnika muddatlari va me'yorlariga asosan, o'z vaqtida sug'orilib turiladi. G'o'za va boshqa sug'oriladigan ekinlarning suvga bo'lgan talabi o'sish davrida har xil bo'ladi. Suvga bo'lgan talab joylarning tabiiy sharoitlariga, tuproq va uning unumdorligiga, yer osti suvining yaqinligi va tuproqning sho'rlanish darajalariga qarab aniqlanadi. Shuning bilan bir qatorda sug'orishni boshqa agrotexnika tadbirlari bilan to'g'ri bo'g'lab borishini ta'minlash kerak.

G'o'za va boshqa ekinlarni sug'orish va ularga suv berish me'yorlarini to'g'ri aniqlab chiqish hosildorlikni ko'tarishda katta ahamiyatga ega. Ekinlarni su'g'orish me'yorlarini aniqlashda ularning o'sish davrida talab qilinadigan suv me'yorlari asos qilib olinadi. Talab qilinadigan suvni aniqlashda ekin turlari bo'yicha har gektar yerdan olinishi kerak bo'lgan hosil va bir sentner hosil yetishtirish uchun sarflanadigan suv yoki suvdan foydalanish ko'rsatkichi aniqlanadi. Har gektar

yerdan olinadigan hosilni suvdan foydalanish ko'rsatkichiga ko'paytirilsa, bir gektarga vegetasiya davrida sarf etiladigan suvning miqdori kelib chiqadi.

Tuproq sharoitlariga va agrotexnika muddatlariga qarab, su'g'orish me'yorlari mavsumda ekinlar bo'yicha taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin, gektariga m³ hisobida: g'o'za 2500-8000;

Sug'orish uch turga bo'linadi; oqar suv bilan sug'orish, yomg'irlatib sug'orish, tomchilatib sug'orish.

Oqar suv bilan sug'orish. Oqar suvlar bilan yoppasiga, bostirib va egatlar orqali sug'orish mumkin. hozirgi vaqtda chopiq qilinadigan deyarli barcha ekinlar, qisman ko'p yillik o'tlar va g'alla ekinlari egatlar orqali sug'oriladi.

Egatlar orqali sug'orilganda sug'orish me'yori minimal bo'lganda ham dalaga suv tekis taqsimlanadi. Ekinlar qator oralarining kengligiga qarab sug'orish egatlarining chuqurligi 14-30 sm. dan oshmasligi kerak. Chunki dala o'nqir-cho'nqir bo'lsa, ularda suv to'planib qoladi. Egat orqali sug'orishda egatlarning uzunligi va har bir egatga to'g'ri keladigan oqimning ko'pkamligini aniqlash zarur. Yerning nishabligiga va tuproq sharoitiga qarab egatlarni 200-250 m. uzunlikda olish mumkin. Suvni yaxshi o'tkazmaydigan tuproqlarda egatlar uzunroq olinadi. Yetarli tekislanmagan uchastkalarda va suvni yaxshi o'tkazadigan tuproqlarda sug'orish egatlarining uzunligi 100-200 m. bo'lishi kerak.

Keng qatorlab chigit ekiladigan dalalarda tuproqning suv shimishiga qarab, agar tuproq suvni kuchli shimsa egatlarini 200-250 m, o'rta shimsa 300-400 m, ozroq shimsa 450-500 m. uzunlikda olish mumkin.

Suv o'tkazuvchanligi yuqori bo'lgan tuproqlarda suv oqimi birinchi sug'orishda keyingi sug'orishlarga qaraganda, taxminan ikki marta oshiriladi. Suv egatning oxiriga yetganida, uning hamma yeriga bir tekis shimilishi uchun oqim kamaytiriladi.

Suv egatlarni yuvib yubormasligi uchun egat boshiga har xil narsalar bosib mustahkamlanadi.

Xo'jaliklarda uchburchak kesikli temir qalpoqchalar, sifonlar va har xil turdagi naylar qo'llaniladi. Ular 30-35 sm. uzunlikda va diametri 1,5-2 sm. bo'lishi kerak. Har bir egatga bitta naycha qo'yiladi. Bundan tashqari uzunligi 110 sm, diametri 16dan 40 mm gacha bo'lgan naycha sifonlaridan ham foydalaniladi. Bunday holda suv hamma egatlarga teng miqdorda beriladi. Sifonlar rezinadan, polietilen va boshqa materiallardan tayyorlanishi mumkin

Yog'dirib sug'orish. Bu usulda suv yog'dirish apparati orqali havoga otiladi. Parchalangan suv tomchi bo'lib o'simlikka hamda tuproqqa yomg'ir singari tushadi.

Ko'pchilik dalalarda chuqur egatlar orqali sug'orilganda o'simlik ildizlari suvni ancha pastdan shimadi, shu tufayli pushta tuprog'ida doimo nam yetarli bo'ladi va u mayin holda saqlanadi. Natijada ildizlarga suv, oziq moddalar va havo uzluksiz kelib turadi. G'o'za ildizlarining ko'pchiligi qator oralarining o'rtasida emas, balki pushtalarda rivojlanadi.

Egat oralatib sug'orish oqar suvlarni tejab sarflanishini eng muhim shartlaridan biridir. Bu usulda sug'orilganda suv odatdagidan ancha kam sarflanadi, ayni kezda bug'lanish ozayadi, qator oralari yorilmaydi va nam uzoq saqlanadi, ikki sug'orish orasidagi muddatni 3-5 kunga

uzaytirish imkoniyati tug'iladi. Natijada har bir xo'jalik o'ziga ajratilayotgan suv bilan odatdagidan 1,5 barobar ko'proq maydonni sug'orishi mumkin bo'ladi.

Egat oralatib sug'orilganda birinchi sug'orishda 25-30 foiz, keyingi sug'orishlarda kamida 1215 foizgacha suv tejab qolinadi.

Egat oralatib sug'orishning yana bir afzalligi shundaki, o'simliklar haddan tashqari bo'yiga o'sib ketmaydi, g'o'za tupi kalta bo'g'inli bo'lib, to'g'ri shakllanadi, hosil shoxlari va nishonalari ko'payadi, quyosh nuri g'o'za tupini barcha qismi, ayniqsa, quyi va o'rta yaruslariga to'la tushadi, fotosintez jarayoni yaxshi kechganidan hosil tugunchalari to'kilishi kamayadi.

Egat oralatib sug'orish materiallar, yonilg'i hamda kultivator ishlovchi organlarini kam sarflash imkonini beradi. Shuningdek, suvchilarning mehnati ham tejaladi, ularning ish unumi ko'tariladi.

Egat oralatib sug'orishda birinchi sug'orishdan tortib oxirigacha bitta egat orqali suv berish maqsadga muvofiqdir. Sug'orishda egatlarni almashtirib turishga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Aks holda egat oralatib sug'orishning barcha afzalliklari chippakka chiqadi. Chunki egat olish, kultivatsiya qilishda ildizlar kuchli jarohatlanadi, tuproq zichlashadi, mikroorganizmlar faoliyati susayadi. Shuni aytish kerakki, suv o'tmagan qatorni chuqur ishlamaslik kerak, ularni KKO vositasida 6-8 sm. chuqurlikda yumshatish kifoya qiladi.

Agrotexnikaning boshqa tadbirlari singari egat oralatib sug'orishga ham tuproq xususiyatining konkret holati, ekinlar qator oralig'ining kengligini hisobga olgan holda yondashish kerak. Agrotexnikada bir xil andaza bo'lishi mumkin emas. G'o'zalarni ikki-uch kungacha sug'orish davomida suv oqmagan qator oralari tuprog'i yaxshi namiqsa, egat oralatib sug'orish usuli yuqori foyda beradi. Lekin suv ichmagan qator tuprog'i nam tutashmasdan quruq qoladigan bo'lsa, suv har qaysi egatdan oqiziladi.

Qator xo'jaliklar suv omborlarida to'plangan suvlardan foydalanadilar. Havzaning ostki qismidan kanalga chiqarilgan suvning harorati daryo suvlariga qaraganda ancha past bo'ladi. Bu tuproq haroratini pasaytirib, mikroorganizmlar va ildizlar faoliyatiga salbiy ta'sir etmoqda. Natijada haydalma qatlamda yon ildizlarning miqdori kamayib, ular sust rivojlanadi. Shuning uchun imkoni bor joylarda ombor va daryo suvlarini qo'shib ishlatish yoki sug'orishni qator oralatib o'tkazish tavsiya etiladi. Suv ichmagan qatorida haroratning yuqori bo'lishi sovuq suvning ildizlariga salbiy ta'sirini ancha kamaytiradi.

Sug'orishda dalaning hamma joyi bir tekis suv bilan ta'minlanishiga erishmoq kerak. Shuning uchun egatlar uzunligi, ularning chuqurligi, qatorlar kengligi, dalaning nishabligi, tuproqning suv o'tkazuvchanligi va har bir egatga kiradigan suv oqimi hisobga olinishi zarur.

Keyingi yillarda qator xo'jaliklarda sug'orish haddan tashqari uzun - 300-400 metr, hatto undan ortiq bo'lgan egatlar orqali o'tkazilmoqda. Bu hol dalaning yuqori qismida yerlar zaxlab ketib pastki qismida esa g'o'zalar qonib suv ichmasligiga olib keladi. Oqibatda bir dalaning o'zida uch xil rivojlangan o'zani ko'rish mumkin. Bundan tashqari, uzun egatlarda suvlashni tezlashtirish maqsadida egatdagi suv oqimini ko'paytirish tufayli egat ichidagi unumdor tuproq yuvilib ketadi. Shunday uchastkalarda hosil 20-25 foizga kamayadi.

Bunda egatga oqib kiradigan suvning miqdori, tuproqqa singadigan suv miqdoridan ortiq bo'lmasligi darkor.

Sug'orish davomida ham tuproqning suv singdirish qobiliyati o'zgaradi. Shunga ko'ra har qaysi egatga taralgan suv miqdorini rejalab turishga to'g'ri keladi. Nishabi kam bo'lgan uchastkalarda sug'orish egatlarini 20-22 sm, nishabi katta, suv o'tkazuvchanligi kam bo'lgan yerlarda 14-16 sm. chuqurlikda olish tavsiya etiladi. Nishabi juda tik uchastkalarda suvni kultivator o'rta ish organi izidan yuborsa ham bo'ladi.

Vaqtincha o'q ariqlar dalada traktorlar ishlashiga ancha to'sqinlik qiladi, ular umumiy maydonning 3-5 foizni egatlaydi. O'q ariqlarni ochish va ko'mish uchun ancha mehnat sarf bo'ladi. Vaqtincha o'q ariqlar o'rniga, yerga yotqizilgan egiluvchan yoki yarimqattiq shlanglardan (polietilen yoki kaprondan qilingan) foydalanish mumkin.

Bunda yerga ortiqcha suvning singdirilishi yo'qoladi va suvlashning mehnat unumi ancha ortadi. Quvurlarda egatlarga suv chiqishi uchun teshiklar qilinib, har qaysi egatga kiradigan suv

oqimi maxsus sektor surmasi yordamida rejalab turiladi.

Shlanglarning diametri 12, 20 va 40 sm. kattalikda, ularni o'simlik qatorlariga nisbatan ko'ndalangiga yotqiziladi. Shlanglar sug'orish uchastkalarining butun bo'yicha bir necha yaruslarda yotqiziladi. Ularga suv novlardan (lotoklardan), yer ostiga ko'milgan gidrantlardan yoki bevosita sug'orish mashinalaridan beriladi. Trubalarni tarqatish va yig'ishtirishda PPA-165 agregatidan foydalaniladi. Agregat T-28X traktoriga o'rnatilgan nasos stansiyasi va shlangni yig'ishtiradigan tirkalma telejkadan iborat. Egiluvchan shlanglar novlarga yoki keladigan quvurlarga maxsus moslamalar bilan birlashtirib qo'yiladi. Bu usulda sug'orish ish unumini 3-5 marta, hosilni 10-20% ga ko'paytiradi.

Paxta terim mashinalari yig'im -terim ishlari suratini keskin oshiradi, paxtaning asosiy qismini barvaqt -kuzning yog'in-sochin davriga qoldirmasdan, nobud qilmasdan teib olish imkonini beradi. Mehnat, moddiy texnika vositalarining tejalishi yuqori nav paxtalarining ko'payishi tufayli terim xarajatlari kamayib, mahsulot tannarxi pasayadi, natijada qishloq xo'jalik korxonalari iqtisodiy manfaat ko'rishi mumkin.

Hosili mashinada teriladigan dalalarni chigit ekish paytidanoq tayyorlay boshlash lozim. Mashinada terish uchun ajratilgan paxta maydonlarining imkoni boricha to'rtburchak shaklida bo'lishi ta'minlanishi, kartaning maydoni 2-4 gektargacha bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Dalalarning bo'yi kamida 200-400m, chigit ekilgan qatorlar to'ppa-to'g'ri bo'lishi zarur. Mashina terimi uchun ajratilgan maydonlarda g'o'za tuplarini tik o'stirishga va yaxshi rivojlantirishga harakat qilinadi, g'o'za to'g'ri sug'orilib, oziqlan-tiriladi va qator oralari yaxshi ishlanadi, uning g'ovlab ketishiga, yotib qolishiga yo'l qo'yilmaydi. Sug'orish egatlari qator oralarining qoq o'rtasidan ochiladi. Oxirgi sug'orishdan keyin dala betida qolgan kesaklar maydalanadi va suv yuvgan chuqurlarni ko'mib, oqava ariqlar va sug'orish vaqtida vujudga kelgan o'nqir-cho'nqir joylar tekislanadi.

Mexanik-haydovchi mashinani dalada boshqarganda qatorlarga kirish oldidan uni puxta rostlashi lozim. Bunda terish apparatlarining ish tirqishini to'g'ri tanlash va o'rnatishga alohida e'tibor beriladi. Paxtaning tuplardan yerga oz-ko'p to'kilishi, asosan ish tirqishining to'g'ri o'rnatilishiga bog'liq. Ishning birinchi kunlarida, shuningdek, ko'saklari notekis ochilgan uchastkalarida birinchi shpindelli juft barabanlarning ish tirqishi 32 mm, ayrim hollarda esa 34-36 mm. kenglikda o'rnatiladi. Ish tirqishining kengligi xom ko' saklar sirtida shpindel qoldiradigan izga qarab uzil-kesil belgilanadi. Agar yirik ko' saklarga shpindellar tishlarining izi tushib qolayotgan bo'lsa, tirqishni bundan ortiq kichraytirib bo'lmaydi.

Ikkinchi terimda oldingi juft barabanlarning ish tirqishi 28-30 mm, keyingilariniki esa 26-24 mm. kenglikda o'rnatiladi. Qatorlarga kirishiga 1,5-2m. qolganda apparatlar ishga solinadi. Mashina to qator oralariga kirib borguncha uning ish organlari me'yoriy chastota bilan aylana boshlasin uchun ana shunday qilinadi.

Terish apparatlari g'o'zalardagi eng pastki ko'saklarni ham terib oladigan qilib rostlanadi. Biroq bunda pastki ramkalar kesaklarni sidirib ketmasligi lozim, chunki bu kesaklar g'o'za tuplarining ish tirqishiga kirishiga xalaqit beradi. Bundan tashqari, apparatlar juda past o'rnatilganda qabul kameralariga kesaklar kirib qolib, mashinaning ishlashini qiyinlashtirib qo'yishi mumkin. Karta oxirida qatorlardan chiqayotganda oxirgi g'o'za tupi ish kamerasidan chiqmasdan turib dvigatelning aylanishlar sonini kamaytirish yaramaydi.

Oxirgi g'o'za tupi terish apparatlarining ish tirqishidan chiqib, yetakchi g'ildiraklar bilan tenglashgandan keyingina mashina bura boshlanadi. Mashina ohista, ayniqsa, qatorlarga ko'ndalang yurganda ehtiyotlik bilan buriladi. Bunkerdagi paxtani o'z vaqtida to'kish lozim. Mashina uzoq to'xtatib qo'yiladigan bo'lsa, bunkerdagi paxtani bo'shatish shart. Bir kartadan ikkinchi kartaga o'tishda terish apparatlari va mashinaning boshqa uzellari transport holatiga o'tkaziladi.

Urug'lik paxta yaruslik paxta terish mashinalari bilan bir marta o'tib teriladi. Urug'lik paxta g'o'za tuplaridagi ko'saklarning o'rtacha 70-75 foizi ochilganda va paxta shamolda tabiiy qurigan holatdaligida tera boshlanadi. Urug'lik paxtani ertalab va kechqurun terish tavsiya

etilmaydi.

Nazorat uchun savollari:

1. Paxtachilikning iqtisodiy ahamiyati nimadan iborat.
2. Paxtachilikni barqaror rivojlantirish vazifalari.
3. Paxtachilikda almashlab ekish sxemalarining ta'rifi.
4. Paxtachilikda mintaqaviy ixtisoslanish.
5. Paxtachilikda fermer xo'jaliklarini tashkil etishning ahamiyati.
6. Paxtachilikni jadal rivojlantirish omillari.
7. Paxta tolasi turlarini ta'riflang.
8. Go'zaning erta pishar navlariga ta'rif bering.
9. Paxtachilikda urugchilikning ahamiyati va uni tashkil etish.
10. Standart bo'yicha paxta navlariga qo'yiladigan talablar.
11. Paxtachilikda o'g'itlash tizimi va o'g'it turlari bo'yicha me' /lar.
12. Paxtachilikda shudgorlash va uning ahamiyati.
13. Paxtachilikda yerni ekishga tayyorlash.
14. Chigitni ekishga tayyorlash va ekish me'yorlari, muddatlari.

GLOSSARIY

ALMASHLAB EKISH - ekinlarning yillar davomida ma'lum dalalarda rejali tartibda navbati bilan almashib turilishi.

DAVLAT BUYURTMASI - davlat tomonidan korxonalar va tashkilotlarga muayyan mahsulot turini tayyorlash va uni iste'molchilarga yetkazib berish, ishlab chiqarish, noishlab chiqarish va ilmiy

- tadqiqot xarakteridagi ma'lum ishlarni bajarish uchun beriladigan topshiriq.

DEHQONCHILIK TIZIMI - dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish uchun yerdan to'la foydalanish, tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan, o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradigan tashkiliy-agrotexnik tadbirlar yig'indisi.

EKSPORT - tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi va kapitalni mamlakat tashqarisiga chiqarish.

INNOVASIYA - yangilikni joriy qilish, fan-texnika yutuqlarini boshqarish va tashkil qilish sohasidagi yangiliklar majmui.

KONTRAKTASIYA - 1) biror narsani muayyan muddatga olish va ma'lum sharoitda foydalanish uchun tuzilgan shartnoma; 2) tayyorlash tashkilotlari bilan ishlab chiqaruvchilar, dehqonchilik mahsulotlarini tayyorlash yuzasidan har yili tuziladigan shartnoma.

KO'P UKLADLI IQTISOD - turli mulk shakllari va har xil xo'jalik turlarining yaxlitligidan tashkil topgan iqtisodiyot.

MILLIY BOYLIK - insoniyat jamiyati taraqqiyoti tomonidan yaratilgan hamda avlodlar tomonidan jang'arilgan moddiy va ma'naviy boyliklar, tabiiy resurslardan iborat.

MILLIY DAROMAD - muayyan mamlakatda bir yilda moddiy ishlab chiqarish sohalari tomonidan yangitdan hosil qilingan qiymat yoki boshqacha qilib aytganda, yalpi ijtimoiy mahsulotning ishlab chiqarish jarayonida sarf qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati chegirib tashlanganidan so'ng qolgan qismi. MD moddiy ne'matlar ishlab chiqariladigan sharoitlarda jonli mehnat vositasida yaratilib, ham qiymat- pul, ham moddiy- buyum shakliga ega bo'ladi.

TEXNOLOGIK KARTA - ayrim ekin turlari bo'yicha mahsulot yetishtirish bilan bog'liq ishlarni tashkil qilishda korxonaning mashina va uskunalarga, ishchi kuchlari va mehnat xarajatlariga, yoqilg'i va moylash materiallariga bo'lgan talabi, mexanizatsiya ishlarining hajmi, traktor va qishloq xo'jaligi mashina va uskunalari bo'lgan talab rejalashtiriladigan ish hujjati.

YARMARKA - savdo, sanoat, tijorat va boshqa tashkilotlarning vaqti-vaqti bilan ulgurji savdo-sotiq qilish maqsadida o'tkaziladigan tadbiri. Yarmarka savdo-sotiq, mahsulot namunalari ko'rgazma qilish orqali amalga oshiriladi